

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida "Agrar soha tarmoqlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Ushbu anjuman O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 martdagi 178-F-sonli Farmoyishiga asosan "2018 yil o'tkaziladigan xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi"ga asosan institutimizda tashkil etilmoqda. Respublikamiz Prezidentining 2017 yil 22 dekabdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida energetika korxonalarining va energetik uskunalarning barqaror ishlashi uchun zarur choralar ko'rilmogda. Jumladan, "O'zbekenergo" AJ tomonidan energetika sohasining yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari va barqaror ishlashiga erishish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarilayotgan, shuningdek, ishlab chiqarish mo'ljallanayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan. 2018 yilning 9 oylik yakunlari bo'yicha iste'molchilarga 45,5 mlrd. kVt-s miqdorda elektr energiyasi yetkazib berildi. Prezidentimizning 2018 yil 3 fevraldagi "2018 yilgi Investitsiya va infrastruktura loyihalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3507 sonli qaroriga muvofiq "O'zbekenergo" AJ bo'yicha yangi energiya obyektlarini qurish, amaldagilarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish bo'yicha 5 ta investitsion loyiha amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 85,7% issiqlik elektr stansiyalarida (IES), 13,3% gidroelektr stansiyalarida (GES) va 1% blokstansiyalarda ishlab chiqarilmoqda. IES ishlatilayotgan asosiy yoqilg'i gaz-93,5% va ko'mir-5,1% hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Navoiy va Buxoro viloyatlari chegarasida joylashgan To'dako'l suv ombori (Buxoro shahridan 26 km sharqdagi tabiiy soylikda, Quyimozor suv omborining janubi-g'arbida barpo etilgan. 1968 yilda ishga tushirilgan va 1977 yilda rekonstruksiya qilingan. To'liq hajmi 800 mln. m³. AES qurilishi uchun zarur resurslar yetkazib berilishiga eng qulay, xavfsizlik jihatidan eng ma'qul joy) yaqinida O'zbekiston va Rossiya hamkorligidagi atom elektr stansiyasi (AES) qurilishi boshlandi. Ushbu loyiha bo'yicha O'zbekistonda "3+" VVER-1200 zamonaviy avlod stansiyasi o'rnatilmoqda. Mazkur kompleks 2 ta energoblokdan iborat bo'lib, har birining quvvati 1 ming 200 megavatt bo'ladi. Atom elektr stansiyasi uchun dunyodagi eng xavfsiz va zamonaviy egergoblok tanlab olingan. Uni 2028 yilgacha ishga tushirish rejalashtirilgan va ushbu loyiha qiymati 10 milliard dollar atrofida bo'lishi ko'zda tutilgan. Hozirda Respublikamiz bo'yicha ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 20,7% agrar soha tarmoqlari ehtiyojlari uchun sarflanmoqda. Ushbu ko'rsatkich qishloq aholisi bilan qo'shib hisoblaganda qariyb 30 foizni tashkil etadi. Yaqin yillar ichida ushbu ko'rsatkich 40-45 foizga yetishi bashorat qilinmoqda.

Agrar soha tarmoqlarida elektr energiya va elektr uskunalardan foydalanish bo'yicha nazariy tadqiqotlar va amaliy tajribalar natijasi elektr energiyasidan samarali foydalanish va elektr uskunalari ekspluatatsiyasi samaradorligini yanada takomillashtirish masalasini tizimi yondashuv uslublari asosida amalga oshirish kerakligini ko'rsatmoqda.

Anjuman 7 ta sho'ba asosida ish tutdi:

- Energo va resur tejamkor innovatsion texnologiyalar;
- Energiya ta'minoti, qayta tiklanuvchan energiya manbalari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- Agrar sohada intellektual boshqarish, nazorat qilish va informatsion sistemalar: datchiklar va sistemalar;
- Yer va yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish;
- Gidrotexnika inshootlari va, gidroelektrostansiyalar va nasos stansiyalarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish samaradorligini oshirish;

□ Qishloq va suv xo'jaligini mexanizatsiyalash muammolari va yechimlari;

□ Agrar sektor uchun kadrlar tayyorlashda kompetentli yondashuv.

Sho'balarda agrar sohasidagi dolzarb muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar natijalari muhokama etildi. Anjumanga 400 dan ortiq ilmiy maqolalar kelib tushgan. Bugun sho'balarda o'zlarining ilmiy ma'ruzalari bilan akademiklar, fan doktorlari va fan nomzodlari hamda yosh olimlar ishtirok etishdi. Shuningdek, mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman uchun taqdim etilgan ishlarda xorijiy mamlakatlardan olimlarning 25 dan ortiq ilmiy maqolalari taqdim etildi, ulardan: 2 tasi AQSHdan, 1 tasi Yaponiyadan, 7 tasi Rossiya Federatsiyasidan, 17 tasi Qozog'iston Respublikasidan.